



## О‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINI TAVSIFLASH MASALALARI

**Xudoyberdiyeva Maxbuba Murodovna**

*Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi*

[xudoyberdiyeva@gmail.com](mailto:xudoyberdiyeva@gmail.com)

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida terminologik tizimlarni tartibga solish, ilmiy-texnikaviy va soha terminlarini standartlashtirish dolzarb masalalardan sanaladi. Har qanday ilm-fan sohasida bilimlarni to‘g‘ri, aniq va tizimli uzatish uchun terminologik apparatning mukammalligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiyotshunosligining terminologik tizimi uzluksiz rivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘lib, bu jarayon lug‘atlarda o‘z aksini topishi lozim.

Lug‘at birliklari, xususan, terminlar ma’nosini aniq, to‘g‘ri va to‘la belgilash, lug‘at birliklari ma’nolarini izohlash, ularni o‘zaro bog‘liqlik asosida tartiblash, izchillik bilan qayd etish izohli lug‘at tuzish ishining eng qiyin va asosiy jarayonlaridan hisoblanadi hamda leksikografdan chuqur bilim va katta mahorat talab qiladi. Lug‘atning qiymati, muvaffaqiyati ana shu vazifaning qay darajada bajarilganligi bilan ham belgilanadi<sup>1</sup>.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida adabiyotshunoslik terminlarining tavsiflari ko‘pincha bir-biridan farq qiladi, ba’zan esa ilmiy jihatdan to‘liq asoslanmagan ta’riflar uchraydi. Shuningdek, adabiyotshunoslik terminlariga maxsus pometalar qo‘yilmaganligi yoki illyustrativ misollarning yetishmasligi ham ko‘zga tashlanadi. Bu esa adabiyotshunoslik terminlarining lug‘atlardagi tavsiflarini takomillashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Bu muammolarni hal qilish uchun izohli lug‘atlarda adabiyotshunoslik terminlari tavsiflarini takomillashtirish, terminologik standartlashtirish, ilmiy aniqlikni ta’minlash, zamonaviy adabiyotshunoslik rivojini aks ettirish va lug‘atshunoslar hamda adabiyotshunoslar hamkorligini kuchaytirish talab etiladi.

2 jildli (1981) izohli lug‘atda ayrim adabiyotshunoslik terminlari, jumladan, *kinoya, lirika, munojot, parallelizm, parema (paremiya), poema, poetika, proza, poeziya, realizm, remarka, tragediya* kabilar pometasiz berilgan. Ularning adabiyotshunoslikka oid terminologik ma’no kasb etishi maxsus ajratib ko‘rsatilmagan edi. Keyingi nashrlarda esa (2006, 2023) mazkur leksemalarning adabiyotshunoslikka xos ma’nosi maxsus pometa (ad.) bilan ajratib ko‘rsatildi. Jumladan: **KINOYA** [a. –

<sup>1</sup> Мадавалиев А. Изохли луғатда терминларнинг лексикографик талқинига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон. – Б. 64.



belgi; shama, ishora; piching, kesatiq] 1 Masxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi. – *Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo'lchi.* Oybek, Tanlangan asarlar. 2 ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat<sup>2</sup>.

**LIRIKA** [yun. lyrikos – lira jo'rligida kuylovchi, ijro etuvchi] 1 ad. Badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan (epos va drama bilan) biri bo'lib, unda borliq muallifning chuqur, jo'shqin ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalariga yo'g'rilgan holda, ichki she'riy monolog tarzida aks ettiriladi. Lirikaning o'ziga xos adabiy jins sifatidagi tabiati uning janr qiyofasida ham aks etadi. "O'TA". Emotsionallik va ratsionallikning bu xildagi organik uyg'unligini lirikaning yozilmagan qonuni deyish mumkin. "O'TA". 2 Shu turga mansub asarlar majmui. *Navoiy lirikasi. Pushkin lirikasi*<sup>3</sup>.

Ko'rinadiki, "kinoya" leksemasining ikkinchi (*badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat*) hamda "lirika" so'zining birinchi (*badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan (epos va drama bilan) biri bo'lib, unda borliq muallifning chuqur, jo'shqin ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalariga yo'g'rilgan holda, ichki she'riy monolog tarzida aks ettiriladi*) ma'nosi adabiyotshunoslik termini sifatida qayd etilib, pometalangan.

Adabiyotshunoslik terminlari tavsiflarini takomillashtirish yo'llariga terminlarning tarkibiy tuzilishi va tavsif modelini standartlashtirish (1), adabiyotshunoslikning zamonaviy rivojini aks ettirish (2), milliy va xalqaro adabiyotshunoslik an'alarini uyg'unlashtirish (3), lug'atshunoslik va adabiyotshunoslik mutaxassislarining hamkorligini ta'minlash (4)ni ko'rsatish mumkin.

Har bir adabiyotshunoslik termini tavsifi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Termin nomi
2. Fonetik va grammatik xususiyatlari
3. Etimologik ma'lumot (kelib chiqishi)
4. Ilmiy ta'rif
5. Qo'llanish doirasi va misollar

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b. – B. 433.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 672 b. – B. 584.



6. Sinonimik munosabatlar (mavjud bo'lsa)

Masalan, "sonet" termini uchun takomillashtirilgan tavsif namunasi:

**SONET** [ital. sonetto < provans. sonet – qo'shiqcha] *ad.* Yevropa adabiyotida 14 misradan iborat, qat'iy kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan she'riy shakl. Odatda, birinchi to'rt misra (katren) va keyingi uch misra (terset)dan tashkil topadi. Petrarkacha sonetda ikkita katren va ikkita terset mavjud, Shekspircha sonetda esa uch katren va bitta ikki misralik (kuplet) bo'ladi. Vazni va qofiyalanish tartibi an'anaviy qoidalarga muvofiq. O'zbek adabiyotida XX asrdan boshlab qo'llanilgan. *M.Shayxzoda, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi sonetlari.*

O'zbek tili izohli lug'atida bunday terminlarning kiritilishi adabiyotshunoslik sohasining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi. Bu terminlarni o'zbek tili izohli lug'atiga kiritish bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, o'zbek adabiyotshunosligini xalqaro adabiyotshunoslik fani bilan hamnafas rivojlanishiga yordam beradi.